

2023 – yilning yanvar-mart oylarida Sirdaryo viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023 – yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 1287,6 mlrd. so'mni yoki 2022– yilning mos davriga nisbatan 103,4 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 1146,2 mlrd. so'mni (103,7 %), o'rmon xo'jaligi – 122,1 mlrd. so'mni (102,9 %), baliqchilik xo'jaligi – 19,3 mlrd. so'mni (90,1 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarkibida Sirdaryo viloyatining ulushi 3,2 % ni tashkil etdi.

**1037,2****Sirdaryo viloyati bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi, mlrd. so'm**

01

**1146,2****Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar**


02

**122,1****O'rmon xo'jaligi**


03

**19,3****Baliqchilik xo'jaligi**

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) lar hajmining o‘shish sur‘ati




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) lari umumiy hajmining taqsimlanishi (%)



- O‘rmon xo‘jaligi
- Baliqchilik xo‘jaligi
- Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar
- Chorvachilik
- Ovchilik va qishloq xo‘jaligi sohasidagi xizmatlar
- Dehqonchilik

2023– yilning yanvar-mart yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) lar umumiy hajmining 89,0 % i – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 9,5 % i – o‘rmon xo‘jaligi, 1,5 % i – baliq xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.


Tuman va shaharlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi



2023– yilning yanvar- mart oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining eng yuqori hajmi Boyovut (210,3 mlrd. so‘m) va Sayxunobod (179,3 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Yangiyer shahri (6,6 mlrd. so‘m), Shirin shahri (6,6 mlrd. so‘m), va Guliston shahri (33,9 mlrd. so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Viloyat ko‘rsatkichidan (103,4 %) yuqori o‘shish sur‘atlari Yangiyer (108,9 %) va Guliston (104,7 %) shahri, Sayxunobod (107,8 %), Boyovut (103,5 %) tumanlarida kuzatildi. Shirin shahri (100,9 %), Sirdaryo (101,5 %), Guliston (101,9 %), Oqoltin (102,0 %), Mirzaobod (102,7 %), Xovos (102,8 %), Sardoba (103,3 %) tumanlarida esa aksincha o‘shish sur‘atlari pastligi kuzatildi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining o'sish sur'ati




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2023– yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 1129,2 mlrd. so'mni yoki 2022– yilning mos davriga nisbatan 103,6 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari– 105,3 mlrd. so'mni (103,8 %), chorvachilik mahsulotlari – 1023,9 mlrd. so'mni (103,6 %) tashkil qildi.


Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi

9,3 %
Dehqonchilik
mahsulotlari



90,7 %
Chorvachilik
mahsulotlari

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 85,3 % i – Dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 10,5 % i – fermer xo'jaliklariga, 4,2 % i – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)



2023–yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Guliston tumanida (17,6 %), Dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Yangiyer shahrida (97,6 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Guliston shahrida (50,0 %) qayd etildi.


Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Shirin shahrida (0,0 %), Yangiyer shahrida (1,4 %), Dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng kam ulushi Guliston shahrida (48,6 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Oqoltin (0,4 %) tumanida qayd etildi.

Dehqonchilik


2023–yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 105,3 mlrd. soʻmni yoki 2022–yilning mos davriga nisbatan 103,8 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 9,3 % ni tashkil qildi.

Sabzavotlar


Hajmi, t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023–yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 1,5 ming t. sabzavotlar (2022–yilning yanvar-martiga nisbatan 5,7 % ga ko‘p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 67,1 % i Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



Sirdaryo viloyati bo‘yicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, tonna




Chorvachilik





2023– yilning yanvar-mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 1023,9 mlrd. soʻmni yoki 2022– yilning mos davriga nisbatan 103,6 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 90,7 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish boʻyicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam koʻrsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining koʻpayishiga, ichki isteʼmol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan toʻldirishga imkon yaratdi.




2023– yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan tirik vaznda 15,1 ming t. goʻsht (2022– yilning yanvar-martiga nisbatan 102,8 % ga), 56,5 ming t. sut (104,5 % ga), 37,3 mln. dona tuxum (103,8 %), ishlab chiqarildi va 921,9 t. baliq ovlandi.

Go'sht (tirik vaznda)



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023– yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 15,1 ming t. go'sht (2022– yilning yanvar-martiga nisbatan 102,8 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 92,4 % i Dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




Sirdaryo viloyati bo'yicha go'sht (*tirik vaznda*) yetishtirish hajmi, tonna




Sut


Hajmi, t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023 – yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 56,5 ming t. sut (2022– yilning yanvar-martga nisbatan 104,5 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 88,1 % i Dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Sirdaryo viloyati bo'yicha ishlab chiqarilgan sut hajmi, tonna




Tuxum


Hajmi, ming dona



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023– yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 37,3 mln.dona tuxum (2022– yilning yanvar-martiga nisbatan 103,8 %) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 80,8 % i Dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




Sirdaryo viloyati bo'yicha
olingan tuxum
hajmi, ming dona




Baliq


Hajmi, t.



O'sish sur'ati




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2023– yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 921,9 t. (2022– yilning yanvar-martiga nisbatan 91,1 % ga) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 73,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



Sirdaryo viloyati bo'yicha
ovlangan baliq
hajmi, tonna



Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2023– yining 1– aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 7,6 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 88,8 % i Dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 3,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 15,4 % i fermer xo'jaliklariga, 80,7 % i Dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 3,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishi, otlar umumiy sonidan 21,1 % i fermer xo'jaliklariga, 76,4 % i Dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 7,8 % i fermer xo'jaliklariga, 50,7 % i Dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 41,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

2023– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 458,6 mingtaga yetdi.


2022– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 18403 boshga (4,2 %) ko‘paydi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O‘sish sur‘ati



**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha, jami yirik shoxli qoramollarning 88,8 % i Dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Sirdaryo viloyati
bo'yicha yirik shoxli
qoramollarning umumiy
bosh soni, ming bosh




2023– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 154,1 mingtaga yetdi.


2022– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni – 6890 taga (4,7 %) ko‘paydi.

Sigirlar


Soni, ming bosh



O‘sish sur‘ati




**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 87,1 % i Dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Sirdaryo viloyati
bo'yicha sigirlarning
umumiy bosh soni,
ming bosh




2023– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 329,1 mingtaga yetdi.


2022– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni – 25 550 boshga (8,4 %) ko‘paydi.

Qo‘y va echkilar


Soni, ming bosh



O‘sish sur‘ati



**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 80,7 % i Dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Sirdaryo viloyati bo'yicha qo'y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh




2023– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 16677 taga yetdi.


2022– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni – 1265 taga (8,2 %) ko‘paydi.

Otlar


Soni, bosh



O‘sish sur‘ati



**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami otlarning 76,4 % i Dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Sirdaryo viloyati
bo'yicha otlarning
umumiy bosh soni, bosh




2023– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 2 999,7 mingtaga yetdi.


2022– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni – 11 653 taga (0,4 %) ko‘paydi.

Parrandalar


Soni, ming bosh



O‘sish sur‘ati




**Boshsonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 50,7 % i Dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Sirdaryo viloyati bo'yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

• 67-236-86-25